

ONA TILI DARSLARIDA IMLOVYI SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Mirzatillayeva Shoxistaxon Mexmonjonovna

Namangan viloyati Pop tumani 23-umumtalim maktabi ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Annotatsiya: "Ona tili" nafaqat leksik va grammatik me'yorlarni o'rgatuvchi, balki o'quvchi nutqiy faoliyatida ixtiyoriy mavzu, fanlar kesimidagi matnlarni tinglab tushunish, to'g'ri o'qish, orfoepik va orfografik me'yorlarni qo'llash salohiyatini rivojlantirishiga xizmat qiladigan fandir. Ushbu maqolada bugungi kun muommosi, ya'ni o'quvchilarining imloviy savodxonlikka erishishi uchun foydalanish mumkin bo'lgan usullar haqida o'z fikrlarimizni pedagoglar bilan bo'lishmoqchimiz.

Kalit so'zlar: grammatik me'yorlar, grammatik qoidalar, imlo qoidasi, to'g'ri yozish, to'g'ri ko'chirish, refleksatsiya.

KIRISH

O'quvchiga tilni o'qitish orqali shu til bo'yicha egallanadigan nutqiy faoliyatning asosiy to'rt turi: nutqni tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish amallari bo'yicha har bir sinfda taqozo etiladigan malaka va ko'nikmalar me'yorini rivojlantirish, bunda o'qish hamda mehnat jarayonida, oila va jamoat joylarida yuzaga keladigan turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikr almasha olish va fikr bayon eta bilish, eshitilgan materialni idrok etish, shuningdek, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqeа-hodisalarga o'z munosabatini bildirish tarzida muloqotga kirish malakasini egallab borish dinamikasi nazarda tutiladi.

O'quvchining mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashi uchun ona tili darslarida o'qib tushunishga alohida e'tibor qaratiladi. Ona tilini puxta o'zlashtirgan o'quvchi boshqa fanlarni qoniqarli o'zlashtiradi. O'qish savodxonligi mukammal bo'lgan o'quvchi boshqa fanlarda o'rganayotgan matnlarni o'qish orqali mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlaydi, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqati rivojlantiriladi. Shuningdek, o'quvchining mantiqiy fikrlashini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan xalqaro baholash dasturi (PISA, PIRLS) talablariga mos keladigan matnlar bilan ishslashga mo'ljallangan amaliy topshiriqlarni matnlarning mazmuniga moslashtirish o'qituvchi oldidagi asosiy vazifalardan biri. Bunda matnni tushunish, tahliliy, tanqidiy fikrlash va munosabat bildirish malakalarini shakllantirish ko'zda tutiladi.

Ona tili — milliy savodxonlik fanidir. Chunki bu fanni mukammal o'qitish orqali o'quvchilarining savodxonligiga erishiш mumkin. Ona tili fanini o'qitish mobaynida biz pedagoglar o'quvchilarga tilimiz tarixi, so'zlarning xilma-xilligi, ularning yasalishi, tilshunoslik bo'limlari, so'zlarning boyish manbalari haqida ma'lumot berish bilan bir qatorda eng muhim bo'lgan jihat — imloviy savodxonligiga ham alohida e'tibor qaratamiz.

Darsliklardagi qoidalar ham imloviy savodxonlikka undaydi. Bu esa o'quvchining egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishiga yordam beradi. Shunday bo'lsa-da, ba'zan o'quvchilarining yozma nazorat ishlari: diktant, bayon, insho, tuzgan matnlarida bir qancha imloviy xatolar uchrab turadi. Ayniqsa, o'quvchilarining x va h harflari qatnashgan so'zlarni yozayotganda ikkilanishi, o'ylanib qolishi va hatto bu harflarning o'rnnini almashtirib qo'yishi achinarli holdir.

Bunday holat biz pedagoglarni o'quvchilarning yozma savodxonligi ustida yanada ko'proq ishlashga, bunday so'zlarning to'g'ri yozilishini o'quvchilarga oson yo'llar bilan tushuntirishga undaydi. Bu borada o'z tavsiyalarim bilan o'rtoqlashmoqchiman.

Tilimizda x va h harflari qatnashgan so'zlar juda ko'p. Bu so'zlar qanday yozilishini alohida lug'at tarzida o'quvchilarga to'la-to'kis yodlatish amrimahol. Bu so'zlar kerakli mavzularda o'z o'mnida ko'proq qo'llanib, imlosi tushuntirib ketilsa, o'quvchilar oson o'zlashtiradi.

Yangi nashr qilingan darsliklarda aynan lug'atlar bilan ishslash uchun mashqlar, matnlar berilganligi foydali bo'ldi. Shunda ham o'quvchilarning dars qilishga bo'lgan xohishi zo'rmazo'raki ekanligi, kitob o'qish madaniyati shakllanmaganligi, darslarga naridan beri tayyorlanishi oqibatida savodxoblik maqtovga loyiq emas. To'g'ri savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan iqtidorli, zukko o'quvchilarimiz ham bor. Bizning muammomiz yoshlарimizning savodxonligini ta'minlash bo'lganligi sababidan bu masalaga alohida to'xtaldik.

Yuqori sinflarda bu an'anani davom ettirishning eng qulay yo'li — nazorat ishi darslaridir. Yozma nazorat ishlari(diktant, bayon, insho) olingandan so'ng keyingi darsda yozma ish tahlili o'tkaziladi. Bunda o'zini o'zi baholash metodidan foydalanish mumkin. O'qituvchi bu darsda o'quvchilarning nazorat ishidagi xatolar ustida ishlab bo'lgandan so'ng so'zlashuv uslubida nofaol, badiiy uslubda faol qo'llanadigan x va h harfli so'zlarni aytadi. O'quvchilar yozib bo'lganidan so'ng ekranda bu so'zlarning yozilishi ko'rsatiladi. O'quvchilar daftarlariga yozilgan so'zlarni ekranda ko'rib o'zları tekshiradi va baholarini o'zları qo'yadi. Masalan: xarxasha, hoynahoy, hihilamoq, haytovur, hijjalamoq, hayhotday, hayfsan, hayhaylamoq, hassos, havoyi, xoxolamoq, xiradmand, xarjalamoq, paxmoq... kabi.

X va h harfli so'zlarni adashtirmay yozishi uchun o'quvchilarning yozma nutqiga bunday so'zlarni iloji boricha ko'proq olib kirishimiz kerak. Buyuk pedagog aytganidek, "Takrorlash — bilimning onasidir".

"Refleksatsiya" metodini qo'llash ham juda samarali usullardan biridir. Bunda doimiy aynan takror bir xil qiyin so'zlardan tuzilgan lug'at diktanti, yoki matn tanlanishi mumkin. Bu ish bir nechta darsda qayta foydalaniladi va o'quvchi esida qoladi. Bu usul bilan d-t, g-k, z-s, v-f, x-h, n-m harflari bilan farqlanadigan, o'quvchilar ko'p xato qiladigan so'zlar tanlanadi.

"Ko'chir va eslab qol" o'yin- metodi ham samarali usullardan biri. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga ko'chirish uchun badiiy matn beradi va bu matnda berilgan so'zlarni eslab qolish vazifasi topshiriladi. Masalan, shu matndan diktant olamiz deyish ham mumkin. Matnni o'quvchi diqqat bilan ko'chiradi va xatosiz yozishga harakat qiladi. Bu matndan diktant ham oling. O'quvchilar deyarli 50% i, balki undanam ko'prog'i xatosiz "4" va "5" baholarga yozishadi. Bu noto'g'ri deysizmi? Nega endi xatosiz yozishgani sizning yutug'ingiz emasmi? Biz o'qituvchilar o'quvchilarimiz xatolarini ko'proq topishga harakat qilamiz. Bu xatolar aslida bizniki ekanligini unutamiz. O'quvchilar bizning yuzimiz, bizning mehnatimizni yuzaga chiqaruvchi vosita, xolos. Xato topishga qaratadigan e'tiborimizni shu xatolarni tuzatishga qarataylik! Shunda natijamiz, albatta, bo'ladi. Bu bizdan sal ortiqcha mehnat talab qiladi. Chunki bu nazoratlardan tashqari kundalik vazifa. Bu vazifa orqali o'quvchi o'qish madaniyatiga ham ega bo'ladi. O'qiyotgan barcha so'zlarni shunchaki ma'nosiga e'tibor beribgina qolmay, balki diqqat bilan yozilishini ham o'rganib oladi. Bundan zerikkanda esa "Kim savodxon?!" o'yinini o'tkazib turish ham foydali. Sharti: Sinf kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh imloviy xatosiz yozishi kerak bo'lgan so'zni raqib jamoaga og'zaki aytib turadi va doskada jamoa vakillari

yozishadi. Juda qiziqarli va foydali o‘yin metodi. Bu metod orqali o‘quvchilar o‘zlari ham o‘rganadi, o‘rgatadi va diqqatli bo‘lishni o‘rganadi. Tajribamdan kelib chiqib aniq aytamanki, darsingizdan 1-2 yil davomida haftada bir martadan savodxonlik daqiqalarini ajratib, shu kabi metodlarni qo’llasangiz guruhingiz savodli va zukko bo‘ladi. Savodxonlikni oshirib borish, so‘zlarni diqqat bilan o‘qish, barcha fan darsliklariga ham ko‘chadi va boshqa fanlardan ham yaxshi o‘qiy oladigan o‘quvchilarni tarbiyalaysiz.

O‘quvchi olgan nazariy bilimlarini amaliyatda qo’llay olmasa, uni uqqan deyolmaymiz. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini bitirgandan keyin ishga qabul qilish jarayoni suhbat va savodxonlik darajasi (masalan, diktant yoki ish qog‘ozlaridan birini yozib berishi) bilan imtihon qilinsa savodxonlikka ko‘proq e’tibor berilar edi. Insonga talab qo‘yilsagina u shu talabni bajarish uchun qunt bilan harakat qiladi. Shu usul bilan ham o‘quvchilarning, qolaversa, bo‘lajak kadrlarning yozma savodxonligini oshirish mumkin.

Har bir fuqaro davlat tilida to‘g’ri so‘zlab, to‘g’ri yoza olsagina fuqarolik burchini his etgan, yurt qismatiga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashayotgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- I. “O‘ZBEK TILINING ASOSIY IMLO QOIDALARI” Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagি 339-sон qarori asosida. T.I995
2. “Ona tili fani milliy o‘quv dasturi” 2022-2023- o‘quv yili uchun 3. «Ona tili o‘qitish metodikasi» Gulomov A. Kodirov M. Toshkent. 2012
4. “Pedagogik mahorat” A.Xoliqov Toshkent .2011.